

CORRECTION OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN SCHOOL-AGED CHILDREN

Shakhnoza Gapparovna Ibragimova

Teacher of the "Applied Psychology" Department

Kokand State Pedagogical Institute

ABSTRACT

In the article, the issue of the study of interpersonal relations of children of junior school age by psychologists, the pedagogical-psychological factors of the issue of the description of correctional work due to the negative impact of the inability to enter into communication on the educational activity and their essence are covered

Keywords: junior school age, educational activities, age characteristics, mental processes, cognitive processes, social-psychological difficulties, communication, attitude, self-awareness of the individual.

**KICHIK MAKATAB YOSHIDAGI BOLALARDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLAR
KORREKSIYASI**

Shaxnoza Gapparovna Ibragimova

“Amaliy psixologiya” kafedrası o’qituvchisi

Qo’qon davlat pedagogika instituti

ANNOTATSIYA

Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning shaxslararo munosabatlarning psixolog olimlar tomonidan o’rganilishi masalasi, muloqotga kirisha olmaslikning o’quv faoliyatiga salbiy ta’sirida korreksion ishlarning tavsifi masalasining pedagogik – psixologik omillari hamda ularning mohiyati yoritilgan.

Tayanch so’zlar: kichik maktab yoshi, o’quv faoliyati, yosh xususiyatlari, psixik jarayonlar, bilish jarayonlari, ijtimoiy – psixologik qiyinchiliklar, muloqot, munosabat, shaxsning o’z-o’zini anglash.

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрен вопрос изучения психологами межличностных отношений детей младшего школьного возраста, педагогико-психологических факторов вопроса описания коррекционной работы в связи с негативным влиянием неумения вступать в общение на воспитательную работу. деятельность и их сущность

Ключевые слова: младший школьный возраст, учебная деятельность, возрастные особенности, психические процессы, познавательные процессы, социально-психологические трудности, общение, мироощущение, самосознание личности.

Jamiyatning yangilanishi talim sohasida islohotlar qilinishini, o’zgartirishlar kiritishni, yangicha talim berish usullarini, yangicha yondashuvni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan sog’lom mustaqil fikrlovchi, aqliy takomillashgan yuksak axloqli va istedodli shaxsni jaxon

andozalariga mos ravishda dunyoviy bilimlar bilan ham nazariy, ham amaliy qurollantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Shaxsning barkamolligi ko'p jihatdan uning aqliy rivojlanishi va ma'naviy jihatdan shakllanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Komil insonning muhim sifatlaridan biri muloqot madaniyatidir. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Hozirgi kunda ijtimoiy amaliyotda muloqot va shaxslararo munosabatlar muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muloqot va uning asosiy xususiyatlari, samarali muloqotning psixologik aspektlari, muloqotga o'rgatishga oid psixologik mashqlar, samarali muloqotning psixologik vositalarini o'rganish ishbilarmonlik faoliyatida asosiy o'rinni egallamoqda.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda shaxslararo munosabatlarni o'rganish ko'pgina psixolog olimlar tomonidan rus psixologiyasida intellektning yaxlitligi va uning shaxs bilan bog'liqligi tomonidan yondashiladi. Xususan, rus psixologlaridan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy A.A.Smirnov, B.G.Ananev, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin va ularning shogirdlari turli yoshdagi odamlar intellektini diagnostika qilish, rivojlanish dinamikasi va psixologik jihatlarini o'rganishga xarakat qilganlar.

J.Piajening asarlarida intellektning rivojlanish dinamikasi, uning psixologik asoslari yaqqol namoyon bo'ladi. Uning asosiy tadqiqotlari "Bola nutqi va tafakkuri" (1923), "Bolada intellektni tug'ilishi" (1936), "Bolada hukm va xulosa chiqarish" (1936), "Intellekt psixologiyasi" (1946) va boshqa asarlarida o'z ifodasini topgan.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri unda o'ziga xos ehtiyojlar mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyati bilan shaxslararo munosabatlarni talab etadi. Shu ehtiyojlar kattalardek har kuni maktabga qatnash va tengdoshlari bilan munosabatga kirishish tuyg'usi yotadi. Bundan tashqari, bilimlar kunidagi shodiyona ayyom, o'quvchilik safiga qabul payti, maktab mahmuriyati va o'qituvchilarning unga bildirgan samimiy tilaklari, yuqori sinf o'quvchilarining tabriklari bolaning his-tuyg'usiga ijobiy ta'sir etadi. Sinfdagi o'rtoqlari bilan qatorlashib saf tortib yurishlar, birgalashib o'ynash, oshxonaga borish, o'qituvchining o'g'itlari ham bolani o'ziga rom etadi. Umuman, kichik maktab yoshidagi bola o'qishning tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak, deb tushunadi. Ammo, u kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o'zini - o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

1) hamqorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay pozitsiyasini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish.

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

L. S. Vigotskiy, A. N. Leontev, A.R. Luriya, D.B.Elkonin, A. V. Zaporjets, M. I.Lisina tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporjets va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

- 1) e'tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo'ladi;
- 2) kattalar bilan hamqorlik qilish ehtiyoji tug'iladi;
- 3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug'iladi;
- 4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o'zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Kichik maktab yoshidagi bolaning o'zini idora qilish, turli vaziyatlarda o'zini tutish fazilatlarini o'zlashtirilayotgan davrda ba'zi bir qoidalarga rioya qilsa, hamqorlik fazilatida ma'lum yutuqlarga erishadi:

1. Ijtimoiy hodisalarning tashqi voqe bo'lishi nafaqat ichki ruhiy holat va uning mazmunini aks ettiribgina qolmaydi, balki ikki tomonlama aloqa tufayli mazkur jarayon yuzaga keladi.
2. Ixtiyoriy, faol diqqatning tashqi ob'ektlarga yo'naltirilganligi va to'planganligi turli omillar ta'siri tufayli samaradorlik darajasini pasaytiradi, asabiy holat ishchanlikni kamaytirib muloqot maromiga putur yetkazadi.
3. Inson o'zini erkin, ozod, bemalol his etish hislatini o'zlashtirish uchun jismoniy keskinlik, asabiy taranglik, aqliy zo'riqish orqali ko'zlangan maqsadiga yetishi mumkin.¹

Yuqoridagi qoidalarga barcha talabalar rioya qilib, gavdalarini to'g'ri tutish, muammoli vaziyatlarga va muloqot maqsadiga, maromiga mutanosib tushadigan hodisalar, holatlar, sharoitlar, muayyan muhit, mazmunli harakatlar, imo - ishoralar, mimika, pantomimika ustida ishtiyoq bilan shug'ullansalar, yengil tabassum, iliq, miyig'ida kulish, chiroyli yurish kabi mashqlarni amalga oshirsalar, noverbal nutq yordami bilan shaxslararo munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yish imkoniyatiga erishadilar.

Atrofdagilarda yoqimli taassurot qoldirish, ularda mehr - muhabbat tuyg'usini o'yg'otish muloqotdosh tanlashga imkon tug'diradi. Jismoniy va ma'naviy jihatdan erkinlikka erishish o'ziga ishonch tuyg'usini yuzaga keltirsa, mustaqillik muloqotda teng huquqli sherik bo'lishga shart-sharoit yaratadi. Shaxslararo muloqotchanlik ko'nikmalarini xosil qilish uchun tashkil etiladigan treninglarning maqsadi – muloqot jarayonida vujudga keladigan nizoli va muammoli vaziyatlarni yechishga o'rgatishdan iboratdir.

Bu borada kichik maktab yoshidagi bolalar bilan muloqotni rivojlantirish uchun psixokorreksion treninglar ishtirokchilarga nima beradi?

- ✚ Gurux a'zolarining xar birida kuzatuvchanlikning oshishiga olib keladi;
- ✚ Muloqotga kirishayotgan sherigining verbal, noverbal muloqotidagi farqni ajrata bilishga o'rgatadi, ya'ni ishtirokchilar muloqotdagi sherigining so'zlari bilan mos kelmayotgan xatti-harakati, xolati, imo-ishoralarini o'qiy bilishga, ularni taxlil qilishga o'rganadi;
- ✚ Turli xil vaziyatlarda suxbatdoshi bilan muloqotga kirisha olish yo'larini egallashga o'rgatadi;
- ✚ Nizoli va muammoli vaziyatlarda xulq - atvorini me'yorida ushlab turishga o'rgatadi;

¹ E.G'oziev. Muomala psixologiyasi. T.2001 23-bet

- ✚ Muloqot jarayonida boshqalarni, o'zini, shuningdek odamlar orasidagi munosabatlarni yaxshiroq tushunishga o'rgatadi;
- ✚ Shaxsning o'z-o'zini anglash jarayonini tezlashtiradi.
- ✚ O'zi va suxbatdoshining emotsional xolatini solishtirishga, o'zidagi emotsional zo'riqishni pasaytirishga o'rgatadi.

Trening jarayonida trener shaxslararo munosabatlarni yaxshilash uchun mo'ljallangan o'yin va mashqlar, baxs-munozaralarni taklif etishi uchun aynan muloqot haqida, shuningdek bu boradagi psixologik bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Shaxslararo munosabatlar psixologiyaning eng murakkab va asosiy yo'nalishi bo'lib, buni bilmasdan turib trening jarayonini tashkil etish va uning samarasini ta'minlash mumkin emas.

Odatda o'zaro munosabatda bo'layotgan bolalalar – muloqot ishtirokchilari turli xil pozitsiyalardan kelib chiqqan xolda o'zaro munosabatlarda bo'ladilar. Bu pozitsiyalar ko'p jixatdan muloqot ishtirokchilarining o'zaro xolatiga, muloqot natijasiga ta'sir etadi va keyingi munosabatlar mazmunini ham belgilab beradi.

O'rganilgan nazariy manbalar asosida quyidagi xulosalarni ta'kidlab o'tish joiz:

1. Kichik maktab yoshidagi bolalarning muloqot xususiyatlari affektiv-kognitiv-xulqiy tabiatga ega shaxs xususiyatidir. Munosabatlarda sub'ektining ichki holatlari, fikrlari va hissiyotlari refleksiyasini qamrab oladi.
2. Umuman olganda muloqot munosabatlari bu shaxsning ijtimoiy psixologik xususiyatidir. U o'z ichiga empatiyaning ham ob'ekti ham sub'ektiga namoyon bo'ladigan individning ijtimoiy psixologik qobiliyatlarini oladi.
3. Muloqot jarayonida o'zaro munosabatlarga kirishish usullaridan foydalana olish qobiliyatlari kiradi.
4. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda munosabatlari va emosional holatlar beqaror xususiyatga ega. Shaxsning u yoki bu narsalarga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilmasigi salbiy munosabat xususiyatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Boladagi o'z-o'zidan qoniqmaslik, o'ziga nisbatan ishonchsizlik, ularda xavotirlanish hoatlarini hamda salbiy kechinmalarni yuzaga keltirishi mumkin;

REFERENCES

1. Adizova T.M., Usmanova E.Z., To'laganova G.K. Kichik maktab yoshining psixologik muammolari. Bu to'plamda: Psixologik tuzatish ishlarining ayrim jihatlari. –Toshkent.: O'qituvchi, 1995. B. 3-12.
2. Aleksandrova YA.A. Nevrozi detey mladshego shkol'nogo vozrasta. SPb.: Dilya, 2001. S. 87-95.
3. E.G'oziyev. Muomala psixologiyasi. T.2001 23-bet
4. Salieva, Dilorom Abdullaevna, and Karas Orzhanovich Kaziev. "THE INFLUENCE OF THE GENDER PERSONALITY OF THE MANAGER ON INTERPERSONAL RELATIONS IN PERSONNEL MANAGEMENT." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 756-760.
5. Musayev, N. U. (2022). SKILLS OF PATRIOTIC EDUCATION OF STUDENTS IN MUSIC LESSONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 482-486.

6. Психическое состояние страха дошкольника и его коррекция. Ибрагимова Ш. Салиева Д., 2020/5/20 ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОЦВЕТЕНИЯ ОБЩЕСТВА МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ ОНЛАЙН НАУЧНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
7. Vladimirovich, G. Y. (2022). PRECEDENT-RELATED NOMINALS: CLASSES AND ORIGINS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(12), 212-217.
8. O'smirlik davrida bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishida oilaning ta'siri. Салиева Дилором Абдуллаевна, 2019/5/20 Modern scientific challenges and trends
9. D. Saliyeva. (2022). SPECIFIC ASPECTS OF FORMING THE CHARACTERISTICS OF SELF-MANAGEMENT OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 465–468. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/3065>
10. Dilorom Abdullayevna Saliyeva. (2022). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING TOLERANCE IN FUTURE EDUCATORS. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 8(12), 117–121. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/C5EJ6>